



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-dekabr

730-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha Jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlarni xabardor qilish tartib-taomillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6-dekabrda 816-son qarori ijrosi haqida”gi 599-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha Jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlarni xabardor qilish tartib-taomillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6-dekabrda 816-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-dekabrda 599-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha Jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlarni xabardor qilish tartib-taomillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6-dekabrda 816-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-dekabrda 599-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-dekabrda 816-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF-85-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) markaziy apparatida 3 ta shtat birligidan iborat Sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha axborot markazi (keyingi o‘rinlarda – Axborot markazi) tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasida sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha Jahon savdo tashkilotiga (keyingi o‘rinlarda – JST) a‘zo davlatlarni xabardor qilish va ularning asoslangan so‘rovlariga javob berish tartib-taomillarini joriy etish maqsadida Qo‘mitaga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklanganligi:

oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta‘minlash sohasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, normativlar, qoidalar (keyingi o‘rinlarda – SFS choralari) to‘g‘risida JSTga a‘zo davlatlar muntazam xabardor qilinishini ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari tomonidan JSTga a’zo davlatlar uchun umumiy bo‘lgan tilda ishlab chiqilgan yoki o‘zgartirish kiritilgan SFS choralariga oid loyihalarni JSTga a’zo davlatlarga ular bo‘yicha sharhlar yoki taklif va e’tirozlarni olish uchun yuborish;

JSTga a’zo davlatlar tomonidan berilgan sharhlar yoki taklif va e’tirozlar asosida SFS choralariga oid loyihalarni qayta ko‘rib chiqish uchun tashabbuskor vakolatli davlat organlariga yetkazish;

JSTga a’zo davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlarning asoslangan so‘rovlariga javob berishni ta’minlash;

Axborot markazi Qo‘mitaga yuklanayotgan qo‘shimcha vazifalar bo‘yicha ishlarni tashkil etishga mas’ul etib belgilanganligi;

Sog‘liqni saqlash vazirligi va Qo‘mitaning O‘zbekiston Respublikasining Kodeks Alimentarius milliy komissiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasining Kodeks Alimentarius milliy komissiyasi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**